



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

DIRECTIONS FOR IMPROVING CREDIT MONITORING IN COMMERCIAL BANKS

**¹Murotova Mashrabxon
Axmadjon qizi**

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

ORCID: 0009-0002-7617-4085,

G-mail: murotovamashrabxon7@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqola O'zbekiston tijorat banklarida kredit monitoringini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirish, kredit kartochkalaridan foydalanish, zamonaviy kreditlash shakllarini joriy etish va mijozlarning kreditga layoqatlilikini baholash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, banklar tomonidan kredit monitoringi jarayonida buxgalterlik hisobi va hisobotini olib borish, balans ma'lumotlarini to'g'riligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarni holatini tekshirish kabi amaliy tavsiyalar berilgan. Maqolada O'zbekiston tijorat banklarining jami kredit portfeli bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan va yillik o'sish sur'atlari tahlil qilingan.

Eng. - This article is devoted to the study of areas for improving credit monitoring in commercial banks of Uzbekistan. The article analyzes the issues of increasing the volume of lending to individuals, the use of credit cards, the introduction of modern forms of lending, and improving the system for assessing the creditworthiness of clients. Also, practical recommendations are given by banks in the process of credit monitoring, such as maintaining accounting and reporting, checking the accuracy of balance sheet data, the status of receivables and payables. The article presents statistical data on the total credit portfolio of commercial banks of Uzbekistan and analyzes annual growth rates.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, kredit monitoringi, kredit portfeli, kredit siyosati, risklarni boshqarish, kreditga layoqatlilik, zamonaviy kreditlash shakllari, ipoteka kreditlari, kredit kartochkalari, buxgalterlik hisobi, debitorlik va kreditorlik qarzlari.*

❖ *commercial banks, credit monitoring, credit portfolio, credit policy, risk management, creditworthiness, modern forms of lending, mortgage loans, credit cards, accounting, accounts receivable and accounts payable.*

Kirish.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, xususan kredit portfelining sifatini yaxshilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aholining

to'lovga layoqatli qismini kreditlash hajmini oshirish orqali iqtisodiyotda pul aylanmasini kengaytirish va bank resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Jismoniy shaxslarni kreditlash kredit riski past toifa hisoblanib, bu turdagi kreditlar orqali banklar

barqaror daromad manbaiga ega bo'lishadi. Shu bois, jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish, kredit monitoringini takomillashtirish va kredit risklarini boshqarish bank faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Jismoniy shaxslarga kreditlarni taqdim qilishda oldindan depozit ko'rinishida omonatni jalb qilish riskni pasaytiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ipoteka kreditlarida jismoniy shaxslar tomonidan oldindan kamida 25 foiz miqdorida bankka mablag'larning qo'yilishi, ushbu kreditning risk darajasini pasaytiradi.

Xalqaro amaliyot tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirish maqsadida jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar miqdorini ulardan jalb qilingan depozitlar hajmidan oshirish lozim.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va aktivlari tarkibida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning salmog'ini oshirib borish lozim. Jalb qilingan depozit va kreditlar miqdorini tengligini ta'minlash banklarning resurslarni jalb qilish va kreditlash samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, banklar tomonidan aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi [3].

Fikrimizcha, xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan kredit kartochkalardan foydalanish bugungi kunda jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Kredit kartochkalarini doimiy ish joyiga ega bo'lgan va barqaror daromad oluvchi jismoniy shaxslarga berilishi maqsadga muvofiq. O'zbekistonda kredit kartochkalarini qo'llashda jismoniy shaxs faoliyat yuritayotgan korxonaning kafilligidan foydalanish kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi.

Respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyotida zamonaviy kreditlash shakllaridan keng foydalanish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda kredit risklarini boshqarish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy tadqiqotchilar A.X. Saidov, M.X. Usmonov, B.Sh. Karimov va boshqalar o'z ishlarida tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish, kredit monitoringi tizimini rivojlantirish va mijozlarning to'lovga layoqatliligini baholash mexanizmlarini chuqur o'rganganlar. Ularning fikricha, jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirish, kredit riskini kamaytiruvchi omil sifatida depozit bazasini kengaytirish va zamonaviy kreditlash shakllarini joriy etish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi [6; 7].

Xalqaro ilmiy manbalarda F.S. Mishkin, J. Sinkey, P.S. Rose va boshqalar kredit risklarini boshqarishning ilg'or usullari, xususan kredit reyting tizimlari, "early warning system" (erta ogohlantirish tizimi) hamda portfel diversifikatsiyasi mexanizmlari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kredit riskini samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligi va daromad manbalarini saqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi [8; 9].

MDH mamlakatlari olimlari I. Lavrushin, L. Krasavina va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa faktoring, forfeyting, overdraft va kontokorrent kabi kreditlashning zamonaviy shakllari kredit faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston tijorat banklari uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hisobotlarida kredit monitoringini raqamlashtirish, "credit scoring" tizimini joriy etish va mijozlar haqidagi tashqi

ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali kredit risklarini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan [10].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun kreditlash jarayonida monitoringni kuchaytirish, risklarni aniqlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy kreditlash vositalarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'nalishdagi xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish O'zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida tijorat banklari kredit faoliyatining amaliy holati, xalqaro bank amaliyoti tajribalari hamda O'zbekiston bank tizimidagi kredit monitoringi jarayonlari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi. Taqqoslash tahlili – jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlashdagi risk darajalarini aniqlashda. Empirik tahlil – tijorat banklarining mavjud kredit portfeli va mijozlarning kreditga layoqatlilik bahosini o'rganishda. Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ("Garov to'g'risida", "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunlar) asosida kredit shartnomalari va garov munosabatlarini o'rganishda. Analitik yondashuv – kredit monitoringi tizimidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'nalishlarini ishlab chiqishda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning faktoring, forfeyting, kontokorrent va overdraft shakllaridan foydalanilmasligi kreditlash amaliyotiga va kredit taklifiga salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning zamonaviy usullarini qo'llash banklar va mijozlar uchun

quyidagi ijobiy jihatlarni ta'minlaydi:

- banklar jalb qilingan va o'z mablag'laridan samarali foydalanadi;
- tijorat banklari mijozlari mablag'larini bank talabiga ko'ra kreditni qaytarishga yo'naltirish mumkin;
- tijorat banklari tomonidan kreditlar qayta-qayta berilishi hisobiga kredit taklifini oshirishga xizmat qiladi;
- kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tezkor va kredit olish imkoniyatlari yuqori;
- ushbu kreditlash shakllarining ko'p maqsadliligi ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larini aylanishini tezlashtiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi;
- mijozlar foydalangan kredit miqdori va muddatiga muvofiq foiz to'lovlarni to'laydi;
- kreditlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, bank likvidliligini ta'minlaydi va boshqaradi;
- tijorat banklari kreditlash faoliyatida kredit resurslari ma'lum davomiylik asosida berilishi hisobiga kredit riskini pasayishini ta'minlaydi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish orqali respublikamiz banklarining kreditlash samaradorligi oshiriladi. Xususan, banklarning kredit operatsiyalari hajmi oshadi va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqaror o'sishi ta'minlanadi [1].

Banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlarini baholash tizimini takomillashtirish.

Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatligini baholashda muammolarni mavjudligi kredit portfeli sifatiga va uning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Mijozning kredit to'loviga layoqatligining to'g'ri baholanishi kreditlarning o'z vaqtida to'la qaytishini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- bank mijozlarining to'lovga layoqatliligi bilan birgalikda, banklarda kredit riski darajasini baholash tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda beriladigan kredit bo'yicha riskni boshqarish usullarini belgilash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni toifalarga ajratgan holda korxonalarining xususiyatlarini hisobga oluvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo, aloqa va boshqa tarmoqlarni xususiyatiga qarab kredit to'loviga layoqatlilikni baholashni joriy etish;

- banklar mijozlarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholashda faqatgina korxona faoliyatiga tegishli ma'lumotlarga suyanib qolmasligi zarur.

O'zbekiston bank amaliyotida kreditga layoqatlilikni mijozlar faoliyatiga tegishli moliyaviy hisobotlar, biznes reja va boshqa ko'rsatkichlarning tahlilidan tashqari, tashqi ma'lumotlarga asoslangan holda baholashni joriy qilish bugungi sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozlar haqidagi tashqi ma'lumotlarning unga tegishli bo'lgan ichki ma'lumotlar bazasiga nisbatan shaffofligi yuqori sanaladi.

Tijorat banklari mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda faqatgina moliyaviy koeffitsientlar asosida emas, balki xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan reyting tizimlari, garov obyektlari reyestrini yuritishi va boshqa ma'lumotlar bazasini shakllantirishi hamda ushbu ma'lumotlarga tayangan holda kredit riski darajasini baholashi maqsadga muvofiq.

Kredit monitoringi maqsadida banklar joylarda buxgalterlik hisobi va hisobotini olib borishi, balans ma'lumotlarini to'g'riligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarini holatini va bankka berilgan kafolatlari holatlar bo'yicha tekshirish olib borishi kerak [4].

Monitoring yakunlari bo'yicha akt va xulosa tuziladi, bunda bank tomonidan bu aniqlangan kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha takliflar ko'rsatiladi. Takliflar yuzasidan o'tkazilgan monitoring yakunlari bo'yicha

investision korxona bilan, korxona faoliyatini stabillashtirishini tiklashi va ular bo'yicha moliyaviy zararlarni yo'qotish maqsadida olib boriladigan ishlar rejasi ishlab chiqiladi.

Bank garov ushlab turuvchi sifatida o'z talablarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va «Garov to'g'risida»gi qonunga asosan o'z manfaatini qondiradi. Agar qarz oluvchi tuzilgan shartnoma asosida o'z majburiyatlarini bajarmasa, bank O'zbekiston Respublikasi «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunga asosan xo'jalik sudiga korxonani to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida xo'jalik sudiga murojaat qiladi.

Tahlillar natijasida quyidagi jihatlar aniqlangan:

Jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirish bank risklarini kamaytiradi, chunki ular bo'yicha kreditlar odatda depozitlar bilan qoplangan bo'ladi. Masalan, ipoteka kreditlari bo'yicha oldindan 25 foiz mablag' kiritilishi riskni pasaytiruvchi omildir.

Kredit kartochkalarini joriy etish orqali barqaror daromadga ega shaxslar uchun qulay kredit mexanizmi yaratiladi.

Tijorat banklarining amaliyotida faktoring, forfeyting, kontokorrent va overdraft kabi zamonaviy kreditlash shakllarining kam qo'llanilishi kredit taklifining pasayishiga olib kelmoqda.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda faqat ichki ma'lumotlar bazasiga tayanish yetarli emas, tashqi ma'lumotlar, reyting tizimlari va garov reyestrlari ham qo'llanishi lozim.

Kredit monitoringi jarayonida joylarda buxgalteriya hisobi, balans ma'lumotlari, debitorlik va kreditorlik holatini tekshirish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, tadqiqot natijasida O'zbekiston tijorat banklarining jami kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarining jami kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi [11]

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Jami kreditlar hajmi (mlrd. so'm)</i>	211 580	326 386	390 048	471 405	533 121
<i>Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'm)</i>	39 934	69 496	100 948	148 621	177 532
<i>Ulushi, %</i>	18,9	21,3	25,9	31,5	33,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2020–2024-yillar davomida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 2020-yilda 39,9 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 177,5 trln. so'mga yetib, qariyb besh barobar oshgan. Shuningdek, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi ham ortib borgan. Jumladan, 2024-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi 33,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bu 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 14,4 foiz punktga yuqori. Mazkur holat, bugungi kunda tijorat banklarining jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha monitoring tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki 2024-yil yakuniga ko'ra, muammoli kreditlarning 15 foizi (5,4 trln. so'm) aynan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qayd etish joizki, kredit portfelining kengayishi bir tomondan iqtisodiyotning moliyaviy faolligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan tijorat banklari uchun kredit monitoringi va risklarni boshqarish tizimlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, banklarning resurslarini samarali jalb qilish va kreditlashni kengaytirish strategiyasi jami kredit hajmining o'sish sur'atlari bilan uyg'un ravishda,

iqtisodiyotdagi likvidlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit monitoringi tizimini takomillashtirish nafaqat kreditlarning qaytishini ta'minlaydi, balki banklarning umumiy likvidligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan zamonaviy kreditlash shakllarini joriy etish orqali tijorat banklari mijozlar bazasini kengaytiradi va kredit risklarini diversifikatsiya qiladi. Shuningdek, mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda ko'p manbali ma'lumotlardan foydalanish bank faoliyatining shaffofligini oshiradi. Kredit monitoringi tizimi samarali yo'lga qo'yilganda, kredit portfeli sifati yaxshilanadi va kreditlarning qaytarilish darajasi ortadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida kredit portfeli sifatini oshirish va risklarni boshqarish eng muhim vazifalardan biridir. Jismoniy shaxslarni kreditlash hajmini oshirish bank barqarorligini ta'minlab, risklarni kamaytiradi. Kredit kartochkalari hamda faktoring, forfeyting, overdraft kabi zamonaviy kreditlash shakllarini joriy etish bank resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda tashqi ma'lumotlar, reyting tizimlari va garov reyestrlaridan foydalanish kredit portfeli sifatini yaxshilaydi. 2020–2024-yillarda tijorat banklari kredit portfeli 91 foizga

o'sib, bank tizimining faolligi ortganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, kredit monitoringini takomillashtirish, zamonaviy kreditlash usullarini qo'llash va risklarni samarali boshqarish O'zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Tijorat banklarining barqaror faoliyati va moliyaviy xavfsizligi ko'p jihatdan ularning kredit portfeli sifatiga bog'liq. Kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etar ekan, ularning nazorati va monitoringi tizimi samarali ishlamasa, bankning likvidligi, foydaliligi hamda barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kredit monitoringini takomillashtirish zamonaviy bank boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit monitoringini

takomillashtirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

kredit ajratishdan oldin va keyin mijozning biznes modeli, bozor holati, mijozlar bazasi va ta'minot resurslarini tahlil qilish;

bir tarmoqqa, hududga yoki valyuta turiga juda katta kredit ajratish xavfini kamaytirish;

portfelni tarmoqlar, muddat va mijoz turlari bo'yicha muvozanatli shakllantirish;

monitoring faqat hisobot bilan cheklanmasdan, qarzdorning ish faoliyati, bozor sharoiti va mahsulot aylanasi ham qamrab olishi zarur;

kredit monitoringida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xususan raqamli texnologiyalar orqali qarzdorning risk profilini tezkor baholash;

avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali kredit faoliyatini onlayn kuzatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adilov, M. M. (2024). Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rni va ahamiyati. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 2(1), 45–58. finance.tsue.uz
2. Ergasheva, L. (2023). Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 502–506. openidea.uz
3. To'xtayeva, G., & Norqobilov, N. (2022). Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 5(2), 34–47. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
4. Sabirova, L. B. (2023). Tijorat banklari kredit portfelining tahlili. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 1(4), 23–36. finance.tsue.uz
5. Tillaboyev, X. A. (2021). Tijorat banklarining muammoli kreditlarini kamaytirish yo'llari ("Hamkorbank" ATB misolida). *Tadqiqotlar*, 3(2), 12–25. journalss.org
6. Saidov, A.X. (2021). Tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari. *Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti*.
7. Usmonov, M.X. (2020). Bank tizimida risklarni boshqarish va kredit portfelining samaradorligini oshirish yo'llari. *Toshkent: TDIU ilmiy to'plami*.
8. Mishkin, F.S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (12th ed.). New York: Pearson Education.
9. Rose, P.S., & Hudgins, S.C. (2018). *Bank Management & Financial Services* (10th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
10. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (2023). *Transition Report 2023–2024: Banking Sector Resilience in Central Asia*. London.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari. 25 avgust 2025-yil holati. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2735781/>